



UO'T: 631.47(575.1)

XORAZM VILOYATINING QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARDAN FOYDALANISH MONITORINGI ISHLARI TAHLILI

Zaripboyeva Maftuna Umidjon qizi 

“O'zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyatining geografik va tabiiy sharoiti, hududiy joylashuvi, aholisi va qishloq xo'jaligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek qishloq xo'jaligi yerlarining 2012-2024-yillar kesimida o'zgarishlari taxlil qilingan va sabablari keltirilgan.

Kalit so'zlar. ekologik muvozanat, yer fondi, ball bonitet, Alternativ hudud, huquqiy mexanizm, degradatsiya, ekin yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzor va yaylovlar.

Аннотация. В данной статье представлены данные о географических и природных условиях, территориальном расположении, населении и сельском хозяйстве Хорезмской области. Также проанализированы изменения в сельскохозяйственных землях за период с 2012 по 2024 год, а также приведены причины этих изменений.

Ключевые слова: экологический баланс, земельный фонд, балл бонитета, альтернативные территории, правовой механизм, деградация, пахотные земли, многолетние деревья, пастбища и сенокосные угодья.

Abstract. This article presents information about the geographical and natural conditions, territorial location, population, and agriculture of the Khorezm region. It also analyzes the changes in agricultural lands from 2012 to 2024 and provides the reasons for these changes.

Keywords: ecological balance, land fund, soil fertility rating, alternative areas, legal mechanisms, degradation, arable land, perennial orchards, hayfields, and pastures.

KIRISH.

Qishloq xo'jaligi – iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim rol o'ynaydi. Xorazm viloyati esa o'zining unumdor yerlari, rivojlangan sug'orish

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

tizimi va ko'p yillik dehqonchilik tajribasi bilan O'zbekiston qishloq xo'jaligida alohida o'rin tutadi. Viloyatda mavjud qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish nafaqat hosildorlikni oshirish, balki ekologik muvozanatni saqlash hamda yerlarning degradatsiyasini oldini olish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini yuritish, ularni xaritalashtirish, ulardan foydalanish darajasini baholash va yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash hamda bu muammolarni oldini olish maqsadida yer tuzish chizmalarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada Xorazm viloyati yer fondi toifalari bo'yicha taqsimlanishi hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarning 2012-2024-yillardagi o'zgarishlari tahlil qilindi. Xususan, foydalanish samaradorligi, yer maydonlarining kamayishi yoki ko'payishi, hosildorlik ko'rsatkichlari hamda ekologik holati o'rganildi. Ushbu tahlillar orqali mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR.

Tadqiqot obyekti Xorazm viloyati qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Tadqiqotda statistik tahlil usullari hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA.

O'zbekiston Respublikasining yer resurslari mamlakatning muhim tabiiy boyliklaridan biri hisoblanadi. Bilamizki yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida Respublika hududidagi yerlar O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 8-moddasiga asosan yer toifalariga ajratilgan [1]. Xorazm viloyatining umumiy maydoni 608.2 ming gektar bo'lib 1-rasmda yer fondi toifalari taqsimlanishi ko'rsatilgan.



1-rasm. Xorazm viloyati yerlarining yer toifalari bo'yicha taqsimlanishi.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Xorazm viloyatining asosiy qismini qishloq xo'jaligi yerlari tashkil etib ular quyidagicha taqsimlangan (2-rasm).



2-rasm. Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi yerlarining taqsimlanishi.

Tadqiqot davomida Xorazm viloyatining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlari 2012-2024-yillar kesimida tahlil qilinib o'zgarishlar sababi to'liq o'rganildi (1-jadval).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki Xorazm viloyati qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yer maydonlari 2012-2024- yillar oralig'ida 205386 gektardan 201074 gektarga kamayib ketgan ya'ni 4312 gektar sug'oriladigan yerlar boshqa maqsadlar uchun ajratilgan.

Bog'ot tumanida 370 gektar sug'oriladigan yer maydoni kamaygan. Bunga asosiy sabab sifatida sug'oriladigan yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish hamda yer toifalarining boshqa yer fondi toifalariga o'zgartirilishi bilan izohlanadi.

Gurlan tumanida 453 gektar sug'oriladigan yer maydoni kamaygan. Yuqorida aytganimizdek sug'oriladigan yerlarning kamayishiga asosiy sabablardan biri bo'lgan yer toifasini o'zgartirish, sug'oriladigan yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanish yani aholi punktlari barpo etish, sanoat zonalariga ajratib berish.

Qo'shko'pir tumanida esa 154 gektar, Xiva tumani 218 gektar, Yangiariq tumanida 241 gektar, Shovot tumanida 328 gektar sug'oriladigan yer maydonlari kamaygan. Bunda asosan yerlar aholi punktlari, sanoat zonalari hamda Yangi O'zbekiston massivlarini barpo etish uchun ajratilgan Xiva va Qo'shko'pir tumanlarida ball boniteti 64 ball bo'lgan sug'oriladigan ekin yerlari dehqonchilik

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

qilish uchun eng unumdor yer maydonlari bo'lishiga qaramasdan yer fondi toifalari o'zgartirilgan. Bu kabi unumdor yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanish qishloq xo'jaligi yer maydonlaridan nooqilona foydalanishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida kelajakda oziq-ovqat tanqisligiga bevosita ta'sir qiladi.

1-jadval

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarning tumanlar kesimida (ga)

2012-2024-yillar davomida o'zgarishlari tahlili.

T/r	Hududlar nomi	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020	2021	2022	2023	2024	farqi
1	Bog'ot	16269	16269	16275	16274	16274	16269	16261	16260	16260	16260	16260	16 260	15899	-370
2	Gurlan	25206	25206	25331	25488	25483	25480	25478	25478	25478	25478	25478	25478	24753	-453
3	Qo'shko'pir	23987	23987	24315	24195	24186	24174	24167	24336	24336	24336	24336	24336	23833	-154
4	Urganch	22707	22707	22643	22972	22887	22655	22632	22608	22608	22608	22608	22579	22011	-696
5	Xazorasp	26366	26366	26353	26242	26241	26237	26228	26224	26224	26224	26224	26338	26392	26
6	Xonqa	22110	22110	22204	22204	22195	21870	21863	21859	21858	21861	21849	21839	21217	-893
7	Xiva	13671	13671	13745	13717	13700	13616	13584	13579	13579	13579	13579	13579	13453	-218
8	Shovot	22499	22499	22459	22508	22478	22487	22470	22467	22467	22467	22467	22467	22171	-328
9	Yangiariq	13230	13230	13388	13388	13377	13373	13365	13362	13362	13362	13351	13351	12989	-241
10	Yangibozor	19341	19341	19341	19328	19324	19324	19157	19156	19156	19156	19156	19156	18356	-985
	Jami:	205386	205386	206054	206316	206145	205485	205205	205329	205328	205331	205308	205383	201074	-4312

Eng ko'p kamayish Yangibozor tumanida 985 gektar, Xonqa tumanida 893 gektar va Urganch tumanida esa 696 gektar sug'oriladigan yer maydonlari kamayganligi aniqlandi.

XULOSA, TAKLIF VA TAVSIYALAR.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarning kamayishiga asosiy sabab unumdor qishloq xo'jalik yer maydonlarining boshqa maqsadlarga, jumladan, aholi punktlari, sanoat zonalari hamda "Yangi O'zbekiston" massivlarini barpo etish uchun ajratilgani ko'rsatilmoqda. Bu esa yuqori ball bonitetga ega yer maydonlarida dehqonchilik imkoniyatlarini cheklab, oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir qiladi. Bu kabi salbiy ta'sirlarni oldini olish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Sug'oriladigan yerlarni muhofaza qilish – qishloq xo'jaligi uchun yuqori unumdorlikka ega yerlardan iloji boricha samarali foydalanish va ularni boshqa maqsadlarda foydalanishni cheklash.

- Alternativ hududlarni aniqlash – yangi sanoat va aholi massivlarini barpo etishda unumdor qishloq xo'jaligi yerlari o'rniga boshqa foydalanishga yaroqli bo'lgan yerlardan foydalanish strategiyasini ishlab chiqish.

- Huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish – sug'oriladigan yerlardan foydalanish va ularni boshqa yer fondi toifalariga o'tkazish bo'yicha qat'iy nazorat va tartibga solish mexanizmlarini mustahkamlash.

- Meliorativ chora-tadbirlarni kuchaytirish – degradatsiyaga uchragan yoki foydalanishdan chiqib ketgan yerlarda melioratsiya tadbirlarini amalga oshirib, ularni qayta qishloq xo'jaligi foydalanishiga kiritish.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

- Ilmiy asoslangan yondashuvni tatbiq etish – qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish va zamonaviy texnologiyalar yordamida yer maydonlarining unumdorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobot.
3. O'zbekiston Respublikasi Yer fondi 2024-yil.
4. Avezbayev S, Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2004. - 784 b.
5. R.A.Turayev, G'.T.Parpiyev, Q.M.Xojiyev. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasi. - Toshkent: "Zilol buloq" nashriyoti, 52 b.
6. Turayev R.A. Sug'oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish: T.f.d. diss.avtoreferati. - Toshkent, 2021. - 28 s.
7. O'zbekiston Iqtisodiy tadqiqotlar markazi, www.cer.uz
8. Sharopov R.N., Zaripboyeva M.U. Respublika tumanlarining istiqbolga mo'ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqish "O'zbekiston zamini" jurnali 2024-yil 1-son 75-78 b.